

Fuqarolar va yuridik shaxslarning Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish TARTIBI

1. Fuqarolar va yuridik shaxslar agar sud orqali himoya qilishning barcha vositalaridan foydalanib bo‘lingan bo‘lsa, sudda ko‘rib chiqilishi tugallangan muayyan ishda sud tomonidan o‘ziga nisbatan qo‘llanilgan qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligini tekshirish to‘g‘risidagi shikoyat bilan Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilishga haqli.

!!! Fuqarolar va yuridik shaxslar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonun normasiga sharh berishni so‘rab Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish huquqiga ega emas. Ular Konstitutsiyaviy sudga Konstitutsiya va qonun normasiga rasmiy sharh berishni so‘rab, faqat Konstitutsiyaviy qonunning 27-moddasida belgilangan sub’ektlar orqali masala kiritishlari mumkin.

2. Fuqarolar va yuridik shaxslarning Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish shartlari:

– murojaat qiluvchilarining fikriga ko‘ra, muayyan fuqarolik, jinoyat, iqtisodiy, ma’muriy yoki ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishda sud tomonidan qo‘llanilgan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq bo‘lmagan qonun yoki qonunning aniq normasi bilan ularning konstitutsiyaviy huquq va erkinlikligi buzilgan bo‘lishi lozim. Ya’ni, konstitutsiyaviyligi tekshirilishi so‘ralayotgan qonunning bahsli normasi muayyan ishda sudlar tomonidan murojaatchiga nisbatan qo‘llanilgan bo‘lishi hamda Konstitutsiyaga zid qonun normasining qo‘llanilishi tufayli murojaat qiluvchining Konstitutsiyada belgilangan aniq huquq va erkinliklari buzilganligi bilan bevosita bog‘liq bo‘lishi shart;

– ishni sudda ko‘rib chiqish tugallangan va sud himoyasining barcha shakllaridan foydalangan bo‘lishi talab etiladi;

– ishni sudda ko‘rib chiqish tugagan kundan e’tiboran bir yildan kechiktirmay shikoyat berilishi lozim. Ya’ni, bir yillik muddat – murojaat qiluvchi tomonidan qonunning bahsli normasi unga nisbatan tegishli instansiya sudi tomonidan qo‘llanilib, ish ko‘rib chiqilgan (oxirgi sud hujjati qabul qilingan) kundan hisoblanadi.

3. Fuqarolar va yuridik shaxslarning muayyan ishda unga nisbatan qo‘llanilgan qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligini tekshirish to‘g‘risidagi shikoyatga qo‘yiladigan talablar:

– Konstitutsiyaviy sudga murojaat “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonuning 29 va 30-moddalarida belgilangan talablarga javob berishi lozim;

– tekshirilishi lozim bo‘lgan qonunning nomi, raqami, qabul qilingan sanasi, e’lon qilingan manba ko‘rsatilishi kerak. *Masalan, O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 2 avgustda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta’minlashga qaratilgan o‘zgartishlar va qo‘srimcha kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-705-soni Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2021 yil, № 8, 797-modda; LexUz – milliy bazasidagi manzili <https://lex.uz/docs/5545463>);*

– qonun bilan Konstitutsiya normalarining buzilganligi haqidagi vajlar va dalillar ko‘rsatilishi lozim. Ya’ni, qonun yoki uning aniq normasi Konstitutsianing qaysi normasiga zidligi (aynan nomuvofiqligi yoki mazmunan to‘g‘ri kelmasligi) ko‘rsatiladi;

– murojaatni Konstitutsiyaviy sudda ko‘rib chiqishning huquqiy asoslari ko‘rsatilishi lozim. Ya’ni, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonunning tegishli normalariga havola qilgan holda huquqiy asoslar keltirilishi lozim;

– murojaatda qo‘yilgan masala yuzasidan murojaat qiluvchining fikri va nuqtai nazari asoslantirilgan bo‘lishi talab etiladi;

– murojaatda qo‘yilgan masala Konstitutsianing tegishli normalariga havola qilgan holda huquqiy asoslantirilishi shart;

– murojaat qiluvchi fuqaro (familiyasi, ismi, otasining ismi) va yuridik shaxsning nomi, joylashgan yeri, telefoni, pochta manzili yoki yashash joyi ko‘rsatiladi. *Masalan, Toshtemirov Abdulla Abdug‘afforovich, 1965 yil 30 aprelda tug‘ilgan, 701155, Toshkent viloyati, Ohangaron tumani, Sharq Yulduzi MFY, Yangiobod ko‘chasi, 79-uyda yashovchi, (+998916517984); abdulla@uMail.uz*;

– agar fuqaro yoki yuridik shaxs vakil orqali murojaat qilsa, unda vakilning vakolatini tasdiqlovchi ishonchnoma yoki boshqa hujjat, shuningdek mazkur shaxsning Konstitutsiyaviy sudda vakil sifatida ishtirot etish huquqini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim qilinishi lozim;

– vakil va uning vakolatlari to‘g‘risidagi zarur ma’lumotlar, elektron pochta manzili, yozishmalarni jo‘natish yuridik shaxsning nomi va manzili (joylashgan joyi, telefon, faks, elektron pochta manzili) ko‘rsatiladi;

– murojaatchining shikoyatida ish sudda ko‘rib chiqilganligini va sudda himoya qilishning barcha boshqa vositalaridan foydalanganligini tasdiqlovchi ma’lumotlar taqdim qilinishi kerak. Ya’ni, birinchi instansiya, apellyatsiya va kassatsiya instansiyalari tomonidan, shu jumladan ish kassatsiya tartibida takroran ko‘rilib qabul qilingan sud hujjatlari taqdim etiladi;

– ilova qilinayotgan hujjatlarning ketma-ketlik tartibida ko‘rsatilgan holdagi ro‘yxati taqdim qilinishi lozim.

!!! Umumiy yurisdiksiya sndlari qabul qilgan hujjatlarni qonuniyligi va asoslantirilganligini tekshirish, ularni o'zgartirish yoki bekor qilish, sndlар tomonidan moddiy va protsessual huquq normalarining buzilganligi yoki noto'g'ri qo'llanilganligiga baho berish to'g'risidagi murojaatlarni ko'rib chiqish Konstitutsiyaviy sudning vakolatiga kirmaydi.

4. Konstitutsiyaviy sudga murojaat yozma yoki elektron shaklda yuboriladi.

Yozma murojaatlar pochta aloqa vositasi orqali Konstitutsiyaviy sudning quyidagi yuridik manziliga yuboriladi: Toshkent shahri, 100163, Islom Karimov ko'chasi, 43-uy, 1-korpus.

Elektron murojaatda "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi Qonunga muvofiq elektron hujjatning quyidagi majburiy rekvizitlari ko'rsatilishi lozim:

- elektron raqamli imzo;
- elektron hujjatni jo'natuvchi yuridik shaxsning nomi yoki elektron hujjatni jo'natuvchi fuqaroning familiyasi, ismi, otasining ismi;
- elektron hujjatni jo'natuvchining pochta va elektron manzili;
- hujjat yaratilgan sana.

Elektron murojaatlar quyidagi manzilga yuboriladi: info@ksu.uz.

5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining telefon raqami: +99871 239-80-20.

Ish kunlari: dushanba – juma.

Ish vaqt: soat 9.00 – 18.00 (tushlik 13.00 – 14.00).